

---

## Qo'shtepa tumaniga yangi bosh imom-xatib tayinlandi

Bu haqda qabul qilingan buyruqni viloyat bosh imom-xatibi Ubaydulloh domla Abdullayev "Muborak" masjidi jamoasiga o'qib eshittirdi. Unga ko'ra, Marg'ilon shahridagi "Baraka" masjidi imom-xatibi vazifasida xizmat qilib kelayotgan Xolmurodov Otabek Olimjon o'g'li Qo'shtepa tumani bosh imom-xatibi va "Muborak" masjidi imom-xatibi lavozimiga tayinlandi.

Qo'shtepa tumani bosh imom-xatibi va "Muborak" masjidi imom-xatibi vazifasida ishlab kelayotgan Ahmadaliyev Abduxoshim Abdulhamid o'g'li Marg'ilon shahridagi "Baraka" masjidi imom-xatibi vazifasiga o'tkazildi.

Ijodiy jamoamiz domlalarining kelgusi faoliyatiga muvaffaqiyat tilaydi.

Farg'ona viloyati vakilligi Matbuot xizmati

2024-11-30 14:15:47